

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**QULMAMATOV OYBEK AMONOVICH**

**OG‘ZAKI NUTQ JANRLARINING LINGVOMADANIY TADQIQI**  
**(INGLIZ TILIDAGI DOZENS VA O‘ZBEK TILIDAGI**  
**ASKIYA MISOLIDA)**

**10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)**

**Qulmamatov Oybek Amonovich**

Og‘zaki nutq janrlarining lingvomadaniy tadqiqi (ingliz tilidagi dozens va o‘zbek tilidagi askiya misolida).....3

**Кулмаматов Ойбек Амонович**

Лингвокультурологический анализ жанров устной речи (на примере дазинс на английском языке и аския на узбекском языке).....29

**Kulmamatov Oybek Amonovich**

Linguocultural Analysis of Oral Speech Genres (as Exemplified by the Dozens in English and Askia in Uzbek)..... 57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....61

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**QULMAMATOV OYBEK AMONOVICH**

**OG‘ZAKI NUTQ JANRLARINING LINGVOMADANIY TADQIQI**  
**(INGLIZ TILIDAGI DOZENS VA O‘ZBEK TILIDAGI**  
**ASKIYA MISOLIDA)**

**10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2258 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kulmatov Baxrom Gulyamovich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Qodirova Fazilat Shukurovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Dusmatov Xikmatullo Xaitboyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G9-A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel: (99871) 230-12-91. (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi)

**A.A.Nasirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,  
professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida og‘zaki nutq janrlarini chuqur tahlil qilish va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Globallashuv sharoitida kommunikatsiya va madaniyatlararo muloqot jarayonlarining jadallashuvi bu janrlarga bo‘lgan ilmiy qiziqishni yanada oshirmoqda. Og‘zaki nutq janrlarini lingvomadaniy nuqtai nazardan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritish, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me‘yorlarning tilda qanday aks etishini aniqlash imkonini beradi. Shu bois tilshunoslik taraqqiyoti ushbu janrlarni turli tillarda mavjud madaniy kontekstlar doirasida lisoniy va lingvomadaniy jihatdan kompleks tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Nutq janrlarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish dunyo tilshunosligida bir necha asosli sabablarga ko‘ra dolzarblik kasb etadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ma‘naviy-madaniy tajribasi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi hodisadir. Nutq janrlari esa shu madaniy mazmun va ijtimoiy kontekstlarni ifodalovchi asosiy shakllardan biri bo‘lib, ularning tahlili orqali jamiyatdagi qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va identitet kabi muhim elementlarni aniqlash mumkin. Globallashuv sharoitida turli xalqlarning nutqiy janrlarini madaniy asosda o‘rganish madaniyatlararo anglashuvni mustahkamlash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois bu yo‘nalish zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb tadqiqot sohasi sifatida e‘tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi istiqbolli taraqqiyotining yangi bosqichida og‘zaki nutq janrlarining turli tillar doirasidagi lingvomadaniy masalalari yuzasidan qator tilshunos olimlar<sup>1</sup> tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, afro-amerikaliklarning dozens va o‘zbeklarning askiya kabi og‘zaki nutq janrlarining lingvomadaniy xususiyatlari hozirga qadar chog‘ishtirma tahlil obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, mazkur nutq janrlarining qiyosiy jihatlari bilan bir qatorda, ularning stilistik xususiyatlari, lingvomadaniy omillari hamda tarjimaviy aspektlari bo‘yicha ham yetarli ilmiy tahlillar kuzatilmaydi. Shu

---

<sup>1</sup> Gray J.M. So help me God: Oaths and the English reformation. A Dissertation submitted to the department of history and the committee on graduate studies of Stanford University in partial fulfillment of the requirements for the degree of philosophy. – USA, 2008. – P. 600.; Абрамова Т.В. Диалогическое единство “просьба – реакция” (на материале русского и английского языков): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Воронеж, 2003.; Акименко Н.А. Лингвокультурные характеристики английского сказочного дискурса: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2005.; Белозерова Е.В. Реклама как жанровый метаконцепт (на материале современной русской лингвокультуры): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2007.; Зотева Т.С. Диалогическое единство в жанре просьбы и его эволюция в английской драме XVI-XX вв.: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Саратов, 2001.; Козлов Е.В. Коммуникативность комикса (в текстуальном и семиотическом аспектах): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 1999.; Кочетова Л.А. Лингвокультурные характеристики английского рекламного дискурса: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 1999.; Кочкин М.Ю. Политический скандал как лингвокультурный феномен: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2003.; Кусов Г.В. Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2004.; Синявский А.А. Лингвокультурологический анализ и испанских анекдотов (на материале пиренейского национального варианта испанского языка). Дисс... канд.филол.наук. – М., 2007.

jihattan, ingliz tilidagi dozens va o‘zbek tilidagi askiya kabi turli ijtimoiy-madaniy sharoitlarda shakllangan og‘zaki nutq janrlarini kompleks o‘rganish mavzuning dolzarbligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-son “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi 222-son “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada hizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda lingvomadaniyatshunoslik sohasida so‘nggi yillarda qiyosiy aspektdagi tadqiqotlar jadal rivojlanmoqda. G.K.Kdyrbayeva, F.M.Xasanova, L.E.Xolmuradova, U.R.Yo‘ldoshev, A.M.Kurganov, M.Z.Solijonov, J.A.Baxadirov<sup>2</sup> kabi tilshunoslarning ilmiy ishlari

<sup>2</sup> Кдырбаева Г.К. “Man” – “adam” концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида). Фил.фан.бўй.фал.док. (PhD) ...дисс. – Т., 2017. – Б. 158.; Хасанова Ф.М. Инглиз ва ўзбек тилларида қасамд нутқий жанрининг қиёсий-типологик тадқиқи. Фил.фан.бўй.фал.док. (PhD) ...дисс.автореф. – Т., 2019. – Б. 5.; Холмурадова Л.Э. Тематико-идеографическая репрезентация образных и мотивированных фразеологизмов английского и французского языков (лингвокультурологический аспект). Дисс... PhD по фил.наук. – Самарканд, 2017. – С. 144.; Йўлдошев У.Р. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида). Фил.фан.бўй.фал.док. (PhD) ...дисс. –Т., 2017. – Б. 163.; Курганов А.М. Инглиз ва ўзбек тилларида ҳарбий терминлар қўлланилишининг лингвокультурологик хусусиятлари. Фил.фан.бўй.фал.док. (PhD) ...дисс. – Т., 2021. – Б. 154.; Солижонов М.З. Инглиз ва ўзбек

bir-biriga qardosh bo‘lmagan ikki til doirasida olib borilgan izlanishlar yuzasidan ahamiyatlidir.

Og‘zaki nutq janrlari, ularning lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar xorijda S.Steuer, J.M.Gray, T.V.Abramova, N.A.Akimenko, Ye.V.Belozeroва, T.S.Zoteyeva, Ye.V.Kozlov, L.A.Kochetova, M.Yu.Kochkin, G.V.Kusov, P.A.Rudov, A.A.Sinyavskiy<sup>3</sup> tomonidan olib borilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, xususan, lingvomadaniyatshunoslikning nazariy muammolari Ts.G.Arzakanyan, V.fon Gumboldt, V.A.Maslova, S.A.Arutyunov, A.R.Bagdasarov va boshqalar<sup>4</sup> tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqotimizning obyekti hisoblangan dozens janri R.D.Abrahams, A.Chimezie, H.G.Lefever, R.F.Berdie, J.Dollard<sup>5</sup> kabi folklorshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, askiya san‘ati esa R.Muhammadiyev, M.Qodirov, H.Sultonov, X.Dusmatov, S.Mannopov va M.Sherayev, Said Anvar va A.Qambarov<sup>6</sup> lar tomonidan tadqiq etilgan.

---

тилларидаги ривоятлар концептуал майдонининг лингвокультурологик тадқиқи. Фил.фан.бўй.фал.док. (PhD) ...дисс. – Т., 2021. – Б. 142.; Бахадиров Ж.А. Ўзбек ва инглиз тилларидаги ижтимоий рекламаларнинг лингвомаданий хусусиятлари. Фил.фан.бўй.фал.док. (PhD) ...дисс. – Т., 2021. – Б. 142.

<sup>3</sup> Steuer S. Widows and religious vocation: Options and decisions in the Medieval Province of York, A Thesis submitted to the faculty of the graduate school of the university of Minnesota, in partial fulfillment of the requirements for the degree of philosophy. May, 2001. – P. 270.; Gray J.M. So help me God: Oaths and the English reformation. A Dissertation submitted to the department of history and the committee on graduate studies of Stanford University in partial fulfillment of the requirements for the degree of philosophy. – USA, 2008. – P. 600.; Абрамова Т.В. Диалогическое единство “просьба – реакция” (на материале русского и английского языков): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Воронеж, 2003.; Акименко Н.А. Лингвокультурные характеристики английского сказочного дискурса: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2005.; Белозерова Е.В. Реклама как жанровый метаконцепт (на материале современной русской лингвокультуры): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2007.; Зотева Т.С. Диалогическое единство в жанре просьбы и его эволюция в английской драме XVI-XX вв.: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Саратов, 2001.; Козлов Е.В. Коммуникативность комикса (в текстуальном и семиотическом аспектах): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 1999.; Кочетова Л.А. Лингвокультурные характеристики английского рекламного дискурса: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 1999.; Кочкин М.Ю. Политический скандал как лингвокультурный феномен: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2003.; Кусов Г.В. Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2004.; Рудов П.А. Информативный диалог конфликтного типа: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Новосибирск, 2005.; Синявский А.А. Лингвокультурологический анализ и испанских анекдотов (на материале пиренейского национального варианта испанского языка). Дисс... канд.филол.наук. – М., 2007.

<sup>4</sup> Арзаканьян Ц.Г. Культура и цивилизация: Проблемы теории и истории // Вестник истории мировой культуры. 1961. -№3.; Гумбольдт В.Ф. Язык и философия культуры. –М.: Прогресс, 1985. – С. 452.; Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – М., 1997.; Арутюнов С.А., Багдасаров А.Р. и др. Язык – культура – этнос. – М., 1994.

<sup>5</sup> Abrahams R.D. Playing the Dozens. Source: The Journal of American Folklore, Vol. 75, No. 297, Symposium on Obscenity in Folklore Jul-Sep, 1962. – P. 209-220. [Elektron manba:] <http://www.jstor.org/stable/537723> (Murojaat sanasi: 26.05.2024); Chimezie A. The dozens: an African-heritage theory. Journal of black studies 6, No. 4, June 1976. – P. 401-420; Lefever H.G. Playing the Dozens: A Mechanism for Social Control. Source: Phylon, Vol. 42, -No. 1, 1981. – P. 73; Berdie R.F. Playing the dozens. Journal of Abnormal and Social Psychology, 42: 1947. – P. 120-121.; Dollard J. The Dozens: Dialectic insult. American Imago 1, no. 1: November 1939. – P. 3-25.

<sup>6</sup> Муҳаммадиев П. Ўзбек халқ ижоди. Кўп жилдлик. Аския. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.; Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати. – Т.: Ўқитувчи, 1981.; Султонов Х. Аския. – Т.: Чўлпон, 1998.; Дусматов Х. Аския – сўз ўйини санъати: монография / Фаргона давлат ун-ти., 2022. – Б. 144.; Mannopov S., Sherayev M. O‘zbek xalqining askiya va qiziqchilik san‘ati. – Farg‘ona nashriyoti. 2020. – B. 91.; Said Anvar. Abdulla qiziq nima deydi? – Т.: 2006.; Qambarov A. Askiya san‘ati tarixi va nazariyasi: monografiya. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2023. – B. 128.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oily ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasining *"Ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste'dod egalarini tayyorlab borish"* mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** ingliz tilidagi dozens va o'zbek tilidagi askiya og'zaki nutq janrlarining matniy kompozitsion tuzilishidagi universal va farqli jihatlarini lingvomadaniy aspektda ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

afro-amerikaliklarning dozens hamda o'zbek xalqining askiya janrlarini qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan o'rganish orqali ularning matniy-kompozitsion xususiyatlarini aniqlash, mazkur janrlarning genezisi va evolyutsiyasiga ta'sir ko'rsatgan madaniy-estetik tamoyillar, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitlarni tizimli ravishda tahlil qilish;

san'at, madaniyat, adabiyot va tilshunoslikka oid nazariy manbalar asosida dozens va askiya janrlarining lisoniy xususiyatlarini kompleks o'rganish hamda ularning matniy tuzilishida an'anaviy qolip va struktur modellarning tutgan o'rnini aniqlash;

dozens va askiya bahslarida kulgi effektini yuzaga keltiruvchi stilistik tasvir vositalarini lingvistik tahlil asosida, ularning psixologik, semiotik va diskursiv xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganish hamda funksional ustuvorligini aniqlash;

dozens va askiya matnlarining lisoniy (sintaktik, leksik, stilistik) hamda nolisoniy (madaniy, ijtimoiy) xususiyatlarini qiyosiy-statistik metodlar asosida tahlil qilish va ularning struktur-funksional umumiylik hamda farqlarini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz tilidagi dozens hamda o'zbek tilidagi askiya og'zaki nutq janrlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** dozens va askiya nutq janrlari matnidagi lingvomadaniy xususiyatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, tarixiy-etimologik, chog'ishtirma, komponent tahlil, statistik tahlil hamda kross-madaniy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

afro-amerikaliklarning dozens hamda o'zbek xalqining askiya janrlarining milliy qadriyatlar va badiiy tafakkur asosida vujudga kelgan madaniy-estetik qarashlar, muayyan davr va jamiyat hayoti bilan shartlangan tarixiy-ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan matniy-kompozitsion qurilishi, dialogik va improvizatsion tabiati hamda agonistik-komik performativ xususiyatlari qiyosiy-tipologik yondashuv orqali dalillangan;

dozens va askiya janrlarining ekspressivlik va so'z o'yiniga tayanish kabi lisoniy xususiyatlari, ular matnining an'anaviy qoliplar, dialektik elementlar va paremiologik birlikni o'z ichiga olgan barqaror til birliklari, ikki yoki undan ortiq

kommunikantlar o'rtasida yuzaga keladigan dialogik ifoda shakllari hamda o'ziga xos kommunikativ-pragmatik vositalar negizida shakllanishi matniy-diskursiv tahlil asosida aniqlangan;

har ikkala janrda kulgu uyg'otuvchi estetik maqsad, nutqiy ironiyaning ijtimoiy funksiyasi va shaxs-madaniyat o'zaro munosabatlarining o'ziga xos uslubiy vositalar orqali ifodalanishi, xususan, dozensda giperbola (bo'rttirish), ritmik takrorlar va parodik taqlid; askiyada esa polisemiya, kinoya hamda dialogik-tezkor javob strategiyalari ustuvorligi pragmatik va madaniyatlararo tahlil metodlari yordamida isbotlangan;

dozens va askiya matnlaridagi improvizatsiyaga moyillik, tinglovchiga bevosita ta'sir ko'rsatish, barqaror qolip va takrorlanuvchi semantik modellar kabi umumiyliklar hamda ulardagi farqlar, jumladan, dozensda eksplisitlik (ochiq istehzo), askiyada esa implisitlik (kinoya, qochirim va yashirin ma'no) ustuvor kommunikativ strategiya ekanligi ikki tildagi misollarning qiyosiy-chog'ishtirma va kontrastiv tahlili orqali asoslangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

dozens va askiya janrlari og'zaki so'z o'yinlari sifatida ularning og'zaki nutqqa xos xususiyatlari hamda lingvomadaniy kontekstdagi o'xshash va tafovutli jihatlari asosida qiyosiy jihatdan tahlil etildi. Tadqiqot jarayonida ushbu janrlarning tarjimai davomida ma'no nozikliklarini saqlab qolish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ilmiy asoslangan xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Olingan natijalar tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot yo'nalishlarida nazariy hamda amaliy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi;

dozens va askiya janrlarining lingvomadaniy xususiyatlarini yoritib beruvchi real til materiallari va misollar tizimlashtirilib, qo'shimcha ilova shaklida taqdim etildi. Ular o'quv-uslubiy qo'llanmalar, madaniyatshunoslik va tilshunoslik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun samarali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin;

dozens va askiya janrlarining lingvomadaniy tahlili asosida afro-amerikaliklar va o'zbek xalqining madaniy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari hamda tarixiy-madaniy taraqqiyoti o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi aniqlanib, bu jarayonlar xalq og'zaki ijodining milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi omil sifatidagi ahamiyatini ko'rsatdi. Olingan natijalar madaniyatlararo muloqot va bag'rikenglikni rivojlantirishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar, metodologik usullar, nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, amaliy misollar til materiallariga tayanilgani, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanilganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy

ahamiyati ingliz tilidagi dozens va o‘zbek tilidagi askiya nutq janrlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili leksik-semantik, sintaktik, pragmatik hamda nolisoniy jihatlarda amalga oshirilganligi, tilshunoslikda nutq janrlari yo‘nalishining tadqiq ko‘lamini boyitganligi, dozens va askiyaga oid materiallar asosida yozma manbalar bazasini shakllantirishga xizmat qilganligi, shuningdek afro-amerikaliklar va o‘zbeklarning etnik-madaniy hamda mental xususiyatlariga oid ilmiy xulosalar inglizcha matn tahlili, qiyosiy adabiyotshunoslik va folklorshunoslikning ayrim lisoniy muammolarini yoritishda ilmiy-nazariy manba bo‘la olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy umumlashmalardan “Tilshunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Sotsiolingvistika”, “Folklorshunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik” kabi fanlarni o‘qitishda o‘quv-uslubiy material sifatida foydalanish imkonini berishi, madaniy meros<sup>7</sup>ni saqlash va hujjatlashtirishga xizmat qilishi, ijtimoiy ongni shakllantirishda hissa qo‘shishi, multimedaniy ta‘lim va intermadaniy muloqotni rivojlantirishga xizmat qilishi, shuningdek, ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarda tilni amaliy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz tilidagi dozens va o‘zbek tilidagi askiya nutq janrlarining lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

afro-amerikaliklarning dozens hamda o‘zbek xalqining askiya janrlarining milliy qadriyatlar va badiiy tafakkur asosida vujudga kelgan madaniy-estetik qarashlar, muayyan davr va jamiyat hayoti bilan shartlangan tarixiy-ijtimoiy omillar ta‘sirida shakllangan matniy-kompozitsion qurilishi, dialogik va improvizatsion tabiati hamda agonistik-komik performativ xususiyatlari bilan bog‘liq ma‘lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan ПЗ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 17-fevraldagi 04/1-563-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqot xulosalari amaliy loyiha doirasida elektron platforma, nazariy va amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

dozens va askiya janrlarining ekspressivlik va so‘z o‘yiniga tayanish kabi lisoniy xususiyatlari, ular matnining an‘anaviy qoliplar, dialektik elementlar va paremiologik birlikni o‘z ichiga olgan barqaror til birliklari, ikki yoki undan ortiq kommunikantlar o‘rtasida yuzaga keladigan dialogik ifoda shakllari hamda o‘ziga xos kommunikativ-pragmatik vositalar negizida shakllanishi xususidagi ilmiy-nazariy ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2018–2020-yillarda bajarilgan ПЗ-201709134 raqamli “Filologiya yo‘nalishi bo‘yicha ingliz tili o‘rganishni baholash sifatining shakl va tamoyillari” mavzusidagi amaliy loyihada keng foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-martdagi 04/11-1836-son ma‘lumotnomasi). Natijada san‘at, madaniyat va

---

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B. 21.

tilshunoslik sohasidagi nazariy adabiyotlar askiya va dozens folklor janrlarining lisoniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni og‘zaki nutq janrlari sifatida tasniflash mumkinligi haqida tahliliy fikrlar bilan boyitilgan;

har ikkala janrda kulgu uyg‘otuvchi estetik maqsad, nutqiy ironiyaning ijtimoiy funksiyasi va shaxs-madaniyat o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos uslubiy vositalar orqali ifodalanishi, xususan, dozensda giperbola (bo‘rttirish), ritmik takrorlar va parodik taqlid; askiyada esa polisemiya, kinoya hamda dialogik-tezkor javob strategiyalari ustuvorligi haqidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-222-son qarorining 5-ilovasidagi Respublikada askiya va qiziqchilik san’atini rivojlantirish va ilmiy-o‘rganish hamda targ‘ib etishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ning bajarilishida foydalanilgan (Madaniyat vazirligi huzuridagi Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Respublika askiya va qiziqchilik san’ati markazining 2024-yil 12-fevraldagi 23-son ma‘lumotnomasi). Natijada “yo‘l xaritasi”ning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan takomillashtirilgan;

dozens va askiya matnlaridagi improvizatsiyaga moyillik, tinglovchiga bevosita ta’sir ko‘rsatish, barqaror qolip va takrorlanuvchi semantik modellar kabi umumiyliklar hamda ulardagi farqlar, jumladan, dozensda eksplisitlik (ochiq istehzo), askiyada esa implisitlik (kinoya, qochirim va yashirin ma’no) ustuvor kommunikativ strategiya ekanligi haqidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Yoshlar” teleradiokanali aksiyadorlik jamiyatining “Ma’naviyat bosh muharririyati”, “Tok-shou va interaktiv teleloyihalar bosh muharririyati” tomonidan tayyorlangan “Yoshlar oqshomi”, “Renessans yoshlari”, “Yangi O‘zbekiston yoshlari” kabi ko‘rsatuv va roliklarni tasvirga olish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” teleradiokanalining 2024-yil 28-fevraldagi 14-02-37-son ma‘lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlar afro-amerikalik xalqlarning dozens janri bilan tanishishgan, shuningdek, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi sanalmish askiya san’atini saqlash va targ‘ib etish kabi maqsadlarga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 5 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta maqola, jumladan, 1 tasi xalqaro ilmiy bazalar ro‘yxatiga kirgan xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat bo‘lib, asosiy matn 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tilshunoslikda og‘zaki nutq janrlari o‘rganilishining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, uning dastlabki faslida **“Og‘zaki nutq janrlari: ta’rif, tavsif va tasnif”** masalasi o‘rganilgan. Nutq janri haqida fikr yuritganda, nutq janrini faqatgina tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etish ushbu termin mohiyatini to‘laligicha ochib bera olmaydi. Shuning uchun ham nutq janrini fanlararo tadqiq etish zarurati paydo bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, nutq janri lisoniy falasafaning universal hodisasidir hamda antroposentrik tilshunoslik metodlari uning asosiy qismini tashkil etadi.

Nutq janrlarining umumiy tipologiyasi uchun janrlarni badiiy va badiiy bo‘lmagan, yozma va og‘zaki, monolog va dialogik, sodda va murakkabga bo‘lish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita, stixiyali va ritorik, shaxsiy va marosim-tadbir turlarga ajratish nihoyatda muhim sanaladi.

Aniqlanishicha, nutq janrlari murakkab kommunikativ hodisaning so‘zlashuv nutqini tashkil etishning ajralmas qismi va asosiy vositasi bo‘lib, ko‘pincha bevositalik, o‘z-o‘zidan, norasmiylik, tinglovchining doimiy faol ishtiroki bilan ajralib turadi<sup>8</sup>.

Nutq janrlari nazariyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan rus olimi V.V.Dementevning qayd etishicha, tipik vaziyatlarda inson nutqi nutq janrlarining tayyor shakllariga keltirilgan bo‘lib, ular **“bizga ona tilimiz bilan deyarli bir xil tarzda berilgan”**<sup>9</sup>. Demak, nutq janrlari xilma-xil va inson faoliyatining turli bosqichlarida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda tadqiqotchilar turli janrlarni faol ravishda o‘rganmoqdalar. Nutq janrlari nazariyasiga bo‘lgan ortib borayotgan qiziqish natijasida mazkur yo‘nalishning terminologik tizimida yangi va kutilmagan hodisalarni izohlash, ularni nazariy jihatdan asoslash jarayoni kuzatilmoqda. Shunday qilib, K.F.Sedov *suhbatni*, V.I.Shaxovskiy *yolg‘on* (bo‘hton)ni, S.Denningxaus *da‘voni*, E.N.Talichkina *NetMail* (shaxsiy xabarlar almashinuvi uchun ishlatiladigan kompyuter tarmog‘i pochta)ni, M.L.Makarov *chatni* (chat – suhbat), *elektron pochta* (E-mail), *ICQ* (“I Seek You”) kabi elektron aloqa turlarini, I.G.Dyachkova *tanqidni*, O.V.Koroteyeva *ta’rifni* (iboraning til belgisi sifatida belgilagan narsa bilan bog‘lanishini aniqlashtirish usuli), Z.V.Milovanova *fatika va evristikani* nutq janri deb hisoblaydi.

<sup>8</sup> Дементьев В.В. Теория речевых жанров. – М.: Знак, 2010. – С. 24.

<sup>9</sup> Дементьев В.В. Теория речевых жанров. – М.: Знак, 2010. – С. 33.

Rus tadqiqotchisi T.Shmeleva o‘tkazgan lisoniy tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, nutq janrining bir necha tipdagi mezonlari mavjud:

1. Kommunikativ maqsad. Muloqot jarayoni ishtirokchilarining muayyan fikrga e‘tibor qaratishi, ya‘ni maqsad axborotni uzatish emas, balki tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undash;

2. Tinglovchining qabul qilishdagi ijtimoiy va kommunikativ roli;

3. Qabul qiluvchining konsepsiyasi va voqea mazmuni;

4. Nutqiy janr yuzaga kelishidan oldingi kommunikativ omillar;

5. So‘zlovchining kommunikativ maqsadini amalga oshirishda foydalanadigan grammatik va leksik birliklar<sup>10</sup>.

Har bir xalqning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalaydigan xalq og‘zaki ijodi bo‘ladiki, uning xarakteri, belgisi faqat o‘sha xalqning o‘zigagina tegishli bo‘ladi. Ana shunday folklor janrlarga askiya va dozens janrlarini kiritishimiz mumkin.

Askiya (arab. “zakiiy” – zukko, hozirjavob) – o‘zbek xalq amaliy san’atining bir turi; folklor janri; ommaviy yig‘ilishlarda (to‘y, bayramlarda) ikki yoki undan ortiq shaxs yoki guruhlar o‘rtasida badiiy so‘zlardan foydalangan holda ma’lum bir mavzu bo‘yicha tortishuvi. Tomonlar gohida aylanada, goh yuzma-yuz o‘tirib, tik turib yoki yurib tez javob berishga harakat qiladilar, javoblarini ixcham, ta’sirli, jozibali va kulgili qilib ko‘rsatadilar.

Askiyani yaratish qiyin, uni tushunish oson emas, chunki askiyada nozik ma’noli so‘zlardan foydalaniladi. So‘z o‘yinida tomoshabin uni ixtiro qilgan odamning fikrlash tarzidan foydalanishi kerak. Shuning uchun ba’zi odamlar askiya paytida kuladi, boshqalari esa, nima nazarda tutilganini tushunolmaydilar. Askiya janrining asosiy maqsadi, mohiyati so‘z o‘yinlari orqali kulgi uyg‘otishdir.

Dozens so‘z o‘yini afro-amerikalik qora tanli jamoalar orasida o‘ynaladi, unda ishtirokchilar bir tomon taslim bo‘lgunga qadar bir-birlariga hazil qilishadi. Ushbu musobaqa odatda ishtirokchilarning kayfiyatini ko‘taradigan va ularni qo‘llab-quvvatlaydigan tomoshabinlar oldida o‘tkaziladi. Bu o‘yin afro-amerikaliklarning barcha sinflari, erkaklar va ayollar, bolalar va kattalar orasida “interaktiv haqorat namunasi”ni ifodalaydi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqsak, askiya va dozens so‘z o‘yinlari kommunikativ maqsadga ega, ularda ishtirokchilar nafaqat axborotni uzatishadi, balki tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undashadi.

Bobning “Og‘zaki nutq janrlari lingvomadaniy fenomen sifatida” nomli faslida lingvomadaniyatshunoslik – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha ekanligiga alohida to‘xtalangan. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanishi ta’kidlangan. Bir tomondan

<sup>10</sup> Шмелева Т.В. Модель речевого жанра // Жанры речи. Вып. 1. – Саратов, 1997. – С. 91-92.

lingvomadaniyatshunoslikda insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganishi haqida ham ma’lumot beriladi.

Lingvomadaniyatshunoslik XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi. E.Sepir fikricha, “til bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g‘oyalari majmui sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo‘lolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi”<sup>11</sup>.

Tadqiqot ishining “Ingliz tilidagi dozens va o‘zbek tilidagi askiya nutq janrlarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish tamoyillari” deb nomlangan uchinchi faslida lingvomadaniyatshunoslikning tamoyillari haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, tilshunos-olima G.Yu.Bogdanovich ta’biriga ko‘ra, lingvomadaniyatshunoslikning quyidagi tamoyillar<sup>12</sup>i mavjud:

- Til xalq mentalitetining shakllanishi va namoyon bo‘lishining eng qimmatli manbai bo‘lib, u orqali madaniyat saqlanib qoladi va boshqa avlodlarga o‘tadi.

- Til jamoat mulki bo‘lganligi sababli jamiyatning har bir vakili tomonidan o‘zlashtirilib, til sohibining dunyo haqidagi o‘z tasavvurini shakllantirish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy-psixologik rollar, muloqot strategiyalari va taktikalarining xilma-xilligida til sohibi diqqat-markazida. Til – madaniyatni tavsiflash uchun muhim parametr hisoblanadi.

- Mental tilshunoslik nuqtai nazaridan til faktlarini talqin qilishda eng qimmatli madaniy manbalar xalqning madaniy qarashlari va g‘oyalari tashuvchisi bo‘lgan frazeologik birliklar, metaforalar, timsollar va boshqa shu kabi til vositalari hisoblanadi.

- Til birliklarida mujassamlashgan madaniy ma’nolarni tahlil qilish va ular vositasida madaniyatning konseptual maydonini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv til orqali ifodalangan bilim, tajriba va qadriyatlarining inson ongida qanday mazmuniy tizim va tasavvurlar asosida shakllanishini yoritishga xizmat qiladi.

- Madaniy diskursni o‘rganishda muloqot jarayonida namoyon bo‘ladigan lisoniy ongning milliy-madaniy o‘ziga xosliklariga alohida e’tibor qaratiladi; nutq xatti-harakatlari modellari (stereotiplar, etiket formulalari va boshqalar)ni esa madaniy faktlar sifatida tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biri sanaladi.

Lingvomadaniy materialni tanlash bilan bog‘liq ko‘plab ishlar shuni ko‘rsatadiki, odatda etnik-madaniy mazmundagi matnlar va madaniy kodlarni o‘zlashtirish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bunday holda, bu kodlar bevosita ma’lum bir xalqning ijtimoiy va madaniy kontekstlari bilan belgilanadi.

---

<sup>11</sup> Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 185.

<sup>12</sup> Богданович Г.Ю. О некоторых терминах современной лингвокультурологии. Культура народов Причерноморья. – Симферополь: Межвузовский центр «Крым». 2004. – С. 66.

Ingliz tilshunosi M.Bayram<sup>13</sup> ijtimoiy va madaniy kontekstni quyidagi tamoyillar asosida o'rganishni taklif etadi:

- ijtimoiy o'ziga xoslik va ijtimoiy guruhlar;
- ijtimoiy munosabatlar;
- qadriyatlar va xulq-atvor;
- ijtimoiy va siyosiy institutlar;
- shaxsiy ijtimoiylashuv jarayoni va turmush tarzi;
- milliy tarix;
- milliy geografiya;
- stereotiplar va milliy identifikatsiya.

Madaniy o'ziga xoslik til va xulq-atvor orqali ifodalanganligi sababli, "lingvomadaniy birliklar" va "lingvomadaniy ma'lumotlar" kabi atamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bizning nuqtai nazarimizdan, lingvomadaniy material etnografik matnlarda, ijtimoiy o'zaro ta'sir va xulq-atvor ekplisit va implisit shakllarda namoyon bo'ladigan turli kommunikativ vaziyatlarda juda aniq ifodalanadi. Ushbu ro'yxatni sezilarli darajada kengaytirish mumkin, chunki etnik-madaniy mazmundagi matnlar boshqa lingvomadaniy faktlarni, masalan, an'analar, urf-odatlar, miqlar, afsonalar, maqollar, aforizmlarni o'z ichiga olishi mumkin<sup>14</sup>.

Tadqiqot davomida G.Yu.Bogdanovich hamda M.Bayram taklif etgan tamoyillarga asoslangan holda dozens va askiya nutq janrlarini lingvomadaniy jihatdan o'rganish maqsadida quyidagi tamoyillar tizimi ishlab chiqildi:

- Tilning jamoat mulki ekanligi tamoyili – lisoniy xususiyatlarga egalik (leksik, sintaktik va stilistik);
- Madaniy diskurs tamoyili – lisoniy ongning milliy-madaniy o'ziga xosligi, (stereotiplar, etiket formulalari);
- Ijtimoiy o'ziga xoslik tamoyili – ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy munosabatlar;
- Qadriyatlar va xulq-atvor tamoyili – e'tiqod, axloq va ijtimoiy me'yorlar, shaxslar yoki guruhlarining xatti-harakatlari;
- Shaxsiy ijtimoiylashuv tamoyili – shaxsning oilada va jamiyatda o'zini ifoda etishi;

Milliy tarix tamoyili – ta'lim, madaniy ramzlar, adabiyot, ommaviy marosimlar va yodgorliklar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tadqiqot uchun olingan dozens va askiya janrlari misollarini tanlashda *badihago'ylik (og'zakilik), madaniy kontekst, lisoniy xususiyat, tematik element, sahnaviylik, geografik va demografik farqlanish, ijtimoiylashuvdagi funkcionallik* mezonlariga tayanilgan.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi **"Ingliz tilidagi dozens va o'zbek tilidagi askiya nutq janrlarining lisoniy tahlili"** deb nomlanib, unda dozens va askiya nutq janrlari matni leksik, sintaktik va stilistik jihatdan ko'rib chiqilgan. Ushbu bobning

---

<sup>13</sup> Byram M. Language and culture learning: The need for integration, its representation in textbooks for teaching German in Great Britain. – Frankfurt am Main: Diesterweg, 1993. – P. 3-16.

<sup>14</sup> Курьязова У.А. Критерии отбора лингвокультурологического материала в процессе формирования социокультурной компетенции // ВЕСТНИК ВГУ. СЕРИЯ: ЛИНГВИСТИКА И МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ. 2017. № 1. – С. 149.

“Dozens va askiya nutq janrlarining leksik xususiyatlari” deb nomlanuvchi birinchi faslida matn leksik tahlilining mohiyati so‘z (leksika)ni tahlil qilishda ekanligi tahlil qilib beriladi.

**Omonimiyaga** asoslangan so‘z o‘yini: Omonim birliklar ba‘zan tarixiy taraqqiyot natijasida turli manbaga mansub so‘zlarning shaklan tenglashuvi asosida yuzaga keladi. Bunday birliklar so‘z o‘yini yaratishda, ayniqsa dozens va askiya kabi janrlarda kulgi effekti hosil qiluvchi muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi.

<b>Dozens</b>	<b>Askiya</b>
<p>Misol: <i>Your mama’s so plain, she blends into the plain.</i> Tahlil: 1. plain – chiroyli va ko‘rkam emas, xunuk (insonning ko‘rinishiga nisbatan); 2. plain – tekis (daraxtsiz, qup-quruq yer maydoni).</p> <p>Misol: <i>Your mama’s so strong, she could bear a bear.</i> Tahlil: 1. bear – chidamoq, qo‘llab-quvvatlamoq; 2. bear – ayiq (yovvoyi hayvon).</p> <p>Misol: <i>Your mama’s so loud, she could out-bark a dog.</i> Tahlil: 1. bark – shovqin qilmoq, baland ovozda gapirmoq; 2. bark – hurmoq (itga nisbatan).</p>	<p>Misol: <i>G‘anijon: Bo‘lmasa, shahar yoritish boshqarmasiga borib bizga yoqmaysizlar, faqat shahar boshqarmalariga boradigan yo‘llarga chiroqlar yoqib qo‘yinglar, deb aytaman.</i> <i>Jo‘raxon aka: Ularga yoqsa kerak.</i> Tahlil: “Yo‘l” payrovidan olingan parchada “raqib”lar nutqida qo‘llanilgan yoqmoq fe‘li payrov mavzusi va talabiga amal qilingan holda qo‘llangan va u quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: 1. yoqmoq – kimgadir yoqmoq, ma‘qul kelmoq, kimnidir yoqtirmoq, xushlamoq (shaxsga nisbatan); 2. yoqmoq – o‘t qo‘ymoq, yoqib yubormoq, yondirmoq (chiroqqa nisbatan).</p>

**Antonim** (zid ma‘noli) so‘zlardan foydalanish: Dozens va askiya ijrochilari nutqining ifodaliligi, ekspressivligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashdagi qulay vositalaridan biri, bu – zid ma‘noli so‘zlar hisoblanadi. Antonimlardan, ba‘zi hollarda esa kontekstual qarama-qarshilikdan foydalanish ijrochilarning zukkoligini namoyish etish bilan birga, tomoshabinlarning qiziqishlarini oshiradi.

<b>Dozens</b>	<b>Askiya</b>
<p>Misol: <i>Yo mama so old, when she was young, the Dead Sea was still alive.</i> Tahlil: “dead” ↔ “alive” birliklari antonimik juftlikni tashkil etadi. Hazilda kulgi effekti shu qarama-qarshi ma‘noli birliklarning bitta kontekst doirasida yonma-yon qo‘llanishi orqali yuzaga keladi. Mazkur kontrast bo‘rttirishni kuchaytiradi va bu dozens janriga xos usullardan biri hisoblanadi.</p>	<p>Misol: <i>Jo‘raxon: Siz ham dalaga chiqib qozon boshidan kelmabsiz. Hasharga emas, osharga keldi deyishdi.</i> Tahlil: “hashar” va “oshar” birliklari o‘rtasida antonimlik emas, balki shakliy yaqinlikka tayangan kontekstual qarama-qarshilik mavjud. Ya‘ni hashar mehnatni, oshar esa kinoyaviy tarzda osh uchun kelishni anglatib, kulgi effekti so‘z o‘yini orqali yuzaga kelgan.</p>

**Iboralardan foydalanish.** Askiya jarayonida iboralar o‘z va ko‘chma ma’noda qorishib ketishi (sinkretizm) bilan nutqning ko‘rki bo‘la<sup>15</sup> oladi:

Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>Yo mama’s so cheap, she squeezes a nickel until the buffalo screams.</i></p> <p>Tahlil: to squeeze a nickel until the buffalo screams (extremely frugal) – haddan ortiq tejankor bo‘lmoq.</p>	<p>Misol: <i>Ibrohimjon: Kolxozda sabzavot achib yotibdi! Shaharga jo‘natgani brigadir raisning amirini kutib o‘tiripti.</i></p> <p><i>Tursunbuva: Ayb raisdami, brigadirda? Aying-chi, qaysi birlari qovun tushirishgan?</i></p>

**Shevaga oid so‘zlar (dialects):** Dialektlarning so‘z o‘yinlarida qo‘llanishi madaniy boylikni ifodalaydi, ularning ijrosiga mintaqaviy lazzat qo‘shadi.

Dozens	Askiya
<p>Misol: <u>African American Vernacular English (AAVE)</u>: <i>Yo mama’s so old, she was there when the Big Bang banged, nahmean?</i></p> <p>Tahlil: Use of “nahmean” (know what I mean) – bu shevaga xos so‘z bo‘lib, “nima demoqchiligimni bildingmi” tasdiq so‘roq gapni ifodalaydi.</p>	<p>Misol: <i>Xotamjon: Siddiq akamga gapirgim kelyapti-yu, jijcha tortinibroq turibman.</i></p> <p><i>Askiyachilar: Nimaga?</i></p> <p><i>Xotamjon: Ko‘p gap “eshak”ka yuk bo‘ladimikan deb.</i> Tahlil: “jijcha” – Farg‘ona vodiysi shevasiga xos so‘z, “biroz, ozroq, ozgina” kabi ma’nolarni ifodalaydi.</p>

Bundan tashqari, dozens va askiya matnlarida maqollar va paronimlar ham yumoristik ta’sirchanlikni oshirishdagi muhim leksik birliklar ekanligi haqida misollar taqdim etilgan.

Tadqiqot ishining “Dozens va askiya nutq janrlarining sintaktik xususiyatlari” nomli faslida so‘z va iboralarning ma’noni yetkazish uchun qanday joylashishini tushunish muhimligi haqida so‘z yuritiladi. Sintaktik tahlilini amalga oshirish orqali gap va so‘z birikmalarining dozens va askiya so‘z o‘yinlarida qanday tuzilganligini tekshirish mumkin. O‘zining hozirjavob va ko‘pincha kulgili luqmalari bilan mashhur bo‘lgan ushbu so‘z o‘yinlari o‘z ta’sirini kuchaytirish uchun turli sintaktik xususiyatlardan foydalanadi.

Dozens va askiya matnlarida an’anaviy boshlanmaga egalik holatlari kuzatiladi:

Dozens	Askiya
<p>Dozens hazillari an’anaviy boshlanmaga ega bo‘lib, ularning boshlanishi har doim “Yo mama” (o‘zgarmas ega) bilan boshlanib, o‘zgaruvchan ot-kesim bilan davom etadi.</p>	<p>Misol: <i>Hotamjon: Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?</i></p> <p><i>Bahodirjon: Aytganingiz.</i></p> <p><i>Hotamjon: Mana shu “Sevimli” kanalida Farhod Abdullayevning yonida o‘tirganimni ko‘rib, biyag‘da reytingini</i></p>

<sup>15</sup> Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Т.: Фан, 1970. – Б. 26.

Misol: *Yo mama (o'zgarmas ega) is so stupid (ot-kesim), she got hit by a parked car.*

Misol: *Yo mama (o'zgarmas ega) is so smelly (ot-kesim), even the dogs won't smell her.*

Misol: *Yo mama (o'zgarmas ega) is so black (ot-kesim), she got marked absent at night school.* Tahlil: Yuqorida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, bu turdagi hazillarning barchasida "yo mama" gapning egasi bo'ladi, ya'ni gapdagi ega o'zgarmaydi. Gapning kesimi esa "... is so fat/stupid/ugly" kabi ot-kesimdan iborat bo'ladi. Bunda ot-kesimdagi sifat o'zgaradi, xolos.

Misol: *Your breath smells so bad, it could knock out a charging bull.*

Misol: *Your fashion sense is so terrible, you could make a scarecrow cringe.*

Misol: *Your face is so full of acne, it looks like a Connect the Dots game.*

Misol: *Your cooking is so awful, even the dog refuses to eat it.*

Misol: *Your jokes are so unfunny, even dad jokes cringe in embarrassment.*

Misol: *Your car is so old, it groans and wheezes like an elderly grandparent.*

Misol: *Your cooking is so bland, it's like your spices are on a permanent vacation.* Tahlil: Ushbu hazillarda raqibga tegishli narsalar (nafas, moda, ovqat qilish qobiliyati, yuz, hazil va boshqalar) kulgi nishoniga olingan bo'lib ular "Your..." olmoshi bilan boshlanadi.

*ko'taryapti deb Farhodjonniki ko'tarilganini ko'rganmisiz? Tahlil: Askiyaning ushbu turida ishtirokchilar "gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz", "aytganingizman" kabi an'anaviy so'z va iboralardan foydalanishgan.*

Misol: *Nasriddin: Sizni o'xshatdim. Odilxo'ja: Kimga?*

*Nasriddin: QVZ jamoasi rahbariga.*

*Odilxo'ja: Nima qilardim?*

*Nasriddin: Jamoa musobaqaga chiqay deganda muzqaymoq yeb o'tirarding.*

Tahlil: Askiyaning "o'xshatdim" turida "(men) sizni o'xshatdim", "nimaga/kimga o'xshatdingiz", "... nima qilardingiz/qilardim" kabi iboralar an'anaviy hisoblanadi.

Misol: *Bahodir aka: Afsana.*

*Mansurjon: Jon afsana.*

*Bahodir aka: Shunchalik bazm bo'lar ekan, vaqtliroq aytib qo'ymabsan-a?*

Tahlil: "Afsana" yoki "afsana" deb ataluvchi askiyaning ushbu turida mikromatnlar uchta gapdan iborat bo'ladi. Birinchi va ikkinchi gap an'anaviy boshlanma hisoblanadi va nutqda har gal takrorlanadi. So'zlovchining maqsadi oxirgi gapda bayon etiladi. Uchinchi gapda so'roq ma'nosidan ko'ra, tanbeh, taajjub ma'nosi ifodalanadi. "Afsana"ning asosiy xususiyati dialogik nutqda so'z o'yini qofiya uslubida olib boriladi. Nutq tanqidiy mazmunda bo'ladi, "raqib"ning kamchiliklarini fosh qilishga xizmat qiladi.

Askiyaning "bo'lasizmi", "bilganlar, bilmaganlar..." turlarida ham an'anaviy tarzda ishlatiladigan so'z va iboralar mavjud.

Dozens janrining sintaktik tahlili ta'sirli va kulgili haqoratlarni yaratish uchun

ishlatiladigan bir qator lisoniy strategiyalarni ochib beradi. Bunga parallellik, takrorlash, ellipsis, inversiya, shart ergash gaplar, giperbolik iboralar, metafora va o‘xshatish, olmoshlardan foydalanish, sodda gaplar, sifatning qiyosiy va orttirma darajalri, so‘roq gaplar kiradi. Ushbu xususiyatlarni tushunish ushbu og‘zaki san’at turining ijodiy va murakkab tabiati haqida tushuncha beradi, uning madaniy ifoda va ijtimoiy o‘zaro ta’sirdagi rolini ta’kidlaydi.

Bobning “Dozens va askiyada stilistik badiiy tasvir vositalarning qo‘llanilishi” nomli faslida tadqiqot obyekti hisoblangan dozens va askiya nutq janrlari matnining hosil bo‘lishida stilistik troplarning muhim o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

**Takroriy so‘zlar (repetition)**dan foydalanish: dozens matnida ba’zi so‘z va iboralarning takrorlanishi (ba’zan butun boshli gapning takrorlanishi) ma’lum bir fikrni ta’kidlashi va uni yanada esda qolarli qilishi mumkin, biroq askiya matnida takroriy so‘zlarning kelishi boshqa bir yangi ma’no ifoda etadi.

Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>You think you’re tough? You think you’re tough? You couldn’t even lift a feather!</i> (Sen kuchlimisan? Sen kuchlimisan? Sen hattoki patni ham ko‘tara olmaysan!). Tahlil: <i>You think you’re tough?</i> gapining takroran qo‘llanilishi fikrni, urg‘uni kuchaytirmoqda.</p> <p>Misol: <i>Your car is a relic, a relic from the Jurassic era</i>” (Sening mashinang Yura davridan qolgan yodgorlik, yodgorlik). Tahlil: <i>relic</i> (yodgorlik) so‘zining takrori haqoratning yanada samarali va esda qolarli bo‘lishini ta’minlamoqda.</p>	<p>Misol: <i>Rahmatqul aka: Buncha ikkovlaring sen-menga borib qoldilaring, o‘rtaga g‘uli-g‘uli tushdimi?</i></p> <p><i>Maxsum aka: Oramizga g‘uli-g‘uli tushmaydi, biz ahilmiz. Faqat Ibrohimjonga hayronman: tusi tovuqqa o‘xshaydi deb.</i> Tahlil: Matnda takroriy so‘zning kontekstdagi implisit ma’nosi <i>g‘ulu</i> (a.) – <i>g‘avg‘o</i>, <i>janjal</i><sup>16</sup>, ekplisit ma’nosi qushning sayrashiga taqlid so‘z: <i>g‘uli-g‘ulidan</i> yasalgan qushning nomi hisoblanadi.</p>

**Metafora va o‘xshatish:** Dozens va askiyada metafora va o‘xshatishlar kulgili va hazilomuz bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqqoslashlar uchun ishlatiladi.

Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>Your brain is like a one-bedroom apartment – no room for anything else!</i> Tahlil: Bu misolda o‘xshatish qo‘llangan. Kulgi effekti miya tor xonali kvartiraga qiyoslanishi orqali, ya’ni fikriy cheklanganlikni makon obrazi bilan ifodalash asosida yuzaga kelgan.</p> <p>Misol: <i>Yo mama is a whale.</i> Tahlil: Mazkur dozens hazilida metafora</p>	<p>Misol: <i>Odiljon: Nosirjon, xaridorlar sizdan ham xafa, durustroq muomala qilmas ekansiz! Mana bu qanaqa mol deb so‘rashsa, indamay bezdek bo‘lib turaverar ekansiz.</i></p> <p><i>Nosirjon: Odiljon, sal insofsizroq chiqib qoldingiz, pul-mulning hisobi chatoqroq, reviziya keladi desa, rangingiz darrov doka bo‘lib ketyaptiya!</i> Tahlil: bezdek bo‘lib turish –</p>

<sup>16</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: ЎМЭ, 2008. V жилд. – Б. 459.

shaxsni “whale” obrazi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiya qilish orqali yuzaga kelgan. Bu metafora hajm va qo‘pollik semalarini faollashtirib, kamsituvchi effekt yaratadi.

odamning loqayd, indamas, “jonsiz narsadek” turishini bildiradi; doka bo‘lib ketish – odamning oqarib, zaiflashib, qo‘rquv holatiga tushishini ifodalaydi.

**Qofiya:** Dozens va askiyada tez-tez qofiyali hazillar va so‘z o‘yinlaridan foydalaniladi va shu sababli aytishuvlar jozibali va esda qolarli bo‘ladi.

Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>Your clothes are so old, they belong in a museum, and your face belongs on a broom.</i> Tahlil: “museum” va “broom” so‘zlari o‘zaro qofiyadosh.</p> <p>Misol: <i>You’re so slow, you move like molasses in the snow.</i> Tahlil: “slow” va “snow” – qofiyadosh.</p> <p>Misol: <i>Your jokes are so weak, they couldn’t even make a mouse squeak.</i> Tahlil: “weak” va “squeak” – qofiyadosh.</p> <p>Bu kabi qofiyali haqoratlar dozens bahslariga o‘ynoqlik va ritmik element qo‘shadi.</p>	<p>Askiyaning maxsus “qofiya” turida ohangdorlik yuzaga chiqaruvchi omillar nasriy shaklda bo‘ladi.</p> <p>Misol: <i>Ibrohimjon: Nasrulla aka, keling endi bir qofiyabozlik qilishaylik.</i>  <i>Nasrullo: Bo‘pti, qani boshlang, o‘tirasizmi og‘zingizga nos solib: bay-bay taxir, deb.</i>  <i>Ibrohimjon: Boshingiz garang bo‘lganda aytmovdimmi: meni chaqir deb.</i>  <i>Nasrullo: Bitta shishani bo‘shatibsiz: suvmi, atir, deb...</i> Tahlil: <i>bay-bay taxir, meni chaqir, suvmi, atir</i> – o‘zaro qofiyadosh so‘zlar.</p>

**Giperbola (mubolag‘a):** Mubolag‘a dozens janridagi odatiy stilistik vositadir. Ishtirokchilar ko‘pincha o‘zlarining haqoratlarini yoki maqtanishlarini kuchaytirish uchun giperbolik tildan foydalanadilar. Askiyada ham fikr obyektiv tarzda emas, balki mubolag‘a, oshirma mazmunida ifoda etiladi. Natijada, askiyachilar nutqida hozirjavoblik, hajv va mot qilish kabi xususiyatlari namoyon bo‘ladi.


Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>Your mama’s so fat, she takes up two city blocks!</i> (Onang shu qadar semizki, u shaharning ikkita mahallasiga zo‘rg‘a sig‘adi!). Tahlil: Raqib onasining haddan ortiq semiz ekanligi bo‘rttirilmoqda.</p> <p>Misol: <i>Your shoes are so old, they were probably worn by the dinosaurs.</i> (Oyoq kiyimingni eskiligini qara, dinozavrlar kiyganga o‘xshaydi). Tahlil: Dinozavrlarning odamlar oyoq kiyimini kiyishi aqlga sig‘adigan holat emas, mubolag‘a.</p>	<p>Misol: <i>Yusufjon qiziq: Marg‘ilonning yeri xo‘b yer-da, bir bosh uzumi ikki zambar keladi-ya!</i>  <i>Mamajon maxsum: Tokini Andijondan parxish qilib olib kelgandirsiz-da.</i> Tahlil: Bu misolda Mamajon maxsum fikriy kashfiyot jihatdan Yusufjon qiziqni yenggan hisoblanadi, chunki parxish (parhama) qilingan tokning ildizi Andijonda qoladi. Binobarin, Mamajon maxsum o‘zining viloyatidagi yer hosildorligini Marg‘ilonnikidan ustun qo‘ymoqda.</p>

**Alliteratsiya:** Alliteratsiya so‘zlar qatorida bir xil boshlang‘ich undosh

tovushdan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu hazillarga ritm va ta’sir qo‘shishi mumkin.

Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>You’re a bumbling, babbling buffoon.</i> Tahlil: Ushbu misoldagi 3ta so‘z undosh “b” tovushi bilan boshlangan – <b>b</b>umbling, <b>b</b>abbling, <b>b</b>uffoon.</p> <p>Misol: <i>Your dancing is a dizzying, disastrous display.</i> Tahlil: Ushbu misoldagi 4ta so‘z undosh “d” tovushi bilan boshlangan – <b>d</b>ancing, <b>d</b>izzying, <b>d</b>isastrous, <b>d</b>isplay.</p>	<p>Misol: <i>Mamaroziq aka: Tursunbuva! Mana bular ishimizdagi kamchiliklarni kampirning chig‘irig‘idan chiqarganday chiqarishadi. Biz tuzatdik, ularni ham bir tuzatmaymizmi?</i> Tahlil: Ushbu misoldagi 3ta so‘z undosh “ch” undosh tovushi boshlangan – <b>ch</b>ig‘irig‘idan, <b>ch</b>iqarganday, <b>ch</b>iqarishadi. Biz tuzatdik, ularni ham bir tuzatmaymizmi?</p>

Bizning fikrimizcha, mazkur jarayonni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun rasm orqali ularning asosiy turlari, qo‘llanish chastotasi hamda funksional xususiyatlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Keltirilgan rasmda ushbu janrlarda eng ko‘p uchraydigan badiiy vositalar (metafora, kinoya, mubolag‘a, ellipsis va boshqalar) hamda ularning nutqiy ta’sirni kuchaytirishdagi o‘rni tizimli tarzda aks ettirilgan:



### 1-rasm. Dozens va askiyada badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi

Natijada, dozens va askiya janrlari hosil bo‘lishida foydalanilgan badiiy tasvir vositalarining foiz ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: eng ko‘p ishlatilgan san’atlar giperbola (dozens – 18%, askiya – 9%), metafora (dozens – 15% va askiya – 20%) hamda shevaga xos so‘zlar (dozens – 13% va askiya – 15%) bo‘lsa, eng kam ishlatilgan stilistik vositalar takroriy so‘zlar (dozens – 3% va askiya – 1%), ibora (dozens – 1% va askiya – 1%) va juft so‘zlar (dozens – 0% va askiya – 3%) bo‘ldi.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, ushbu statistik tahlil to'plangan hazillarga nisbatan amalga oshirilgan va u orqali kulgi hosil qilishda qaysi san'atning qanchalik ko'p yoki oz ishlatilishi ko'rsatib berilgan. Boshqa holatlarda bu ko'rsatkichlar o'zgarishi yoki farqli aks etishi mumkin.

Dozens va askiya nutq janrlarining umumiy jihatlari hazil, musobaqa va ijtimoiy muloqot vositasi hisoblansa-da, ularning mavzu doiralari turlicha: dozens hazillarida ko'proq shaxsiy hajvga e'tibor qaratilsa, askiyada kengroq ijtimoiy-satirik masalalar tilga olinadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Ingliz tilidagi dozens va o'zbek tilidagi askiya nutqiy janrlarining lingvomadaniy jihatlari tahlili**"ga bag'ishlangan bo'lib, uning "Dozens va askiya nutqiy janrlarining lingvomadaniy xususiyatlari" nomli faslida dozens va askiya so'z o'yinlari namunalari lingvomadaniy aspekt bo'yicha tahlilga tortilgan.

**Tilning jamoat mulki ekanligi** tamoyili asosan dozens va askiya kontekstida ham mahalliy sheva va so'zlashuv uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi:

Dozens	Askiya
<p>Ishtirokchilar mahalliy ingliz tili (African American Vernacular English – AAVE) yoki boshqa shevaga xos so'zlardan, so'zlashuv uslubidan samarali foydalanishadi.</p>	<p>Misol: <i>Mansurjon: Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?</i></p>
<p>Misol: <i>"Man, you walkin' around here like you own the place, but I gotta ask, where'd you get them shoes? Lookin' like you found 'em at the bottom of the bargain bin!"</i></p>	<p><i>Mamasiddiq: Aytganingizman.</i> <i>Mansurjon: Respublikada o'rni bor Hotamboya rosa ko'tarilib, jayini topganini ko'rganmisiz?</i></p>
<p>Tahlil: a) Shevaga xos so'zlar:</p>	<p><i>Tahlil: "joy" so'zi Farg'ona shevasida buzib "jay" deb aytiladi.</i></p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• "man" so'zining norasmiy murojaat mazmunida ishlatilishi.</li> </ul>	<p>Misol: <i>Xotamjon: Siddiq akamga gapirgim kelyapti-yu, jijcha tortinibroq turibman.</i></p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• "walking" so'zi o'rniga AAVE lahjasi xususiyatini ifodalovchi "walkin" qisqartmasining ishlatilishi.</li> </ul>	<p>... <i>Xotamjon: Abdullajon, mani bilasiz-a?</i> <i>Abdullajon: Bilaman.</i></p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• norasmiy muloqotda keng tarqalgan "gotta" qisqartmasinng "have to" modal fe'li o'rniga ishlatilishi.</li> </ul>	<p><i>Xotamjon: Man doirachiman. Bir urib doiramni yorib qo'yib, gardishini qo'lingizga ushatib qo'ysam, ajoyib maqolga to'g'ri kelarkan-da...</i></p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• "looking" so'zi o'rniga "lookin" qisqartmasining ishlatilishi.</li> </ul>	<p>Tahlil: 1. "jijcha" – Farg'ona vodiysi shevasiga xos so'z, "biroz, ozroq, ozgina" kabi ma'nolarni ifodalaydi. 2. "man" – Toshkent va Farg'ona vodiysi shevasiga xos, adabiy tildagi "men" kishilik olmoshining aytilishi.</p>

**Milliy tarix** tamoyiliga asosan dozens va askiya matnlarida tarixiy faktlar ta'lim, madaniy ramzlar, adabiyot, ommaviy marosimlar va yodgorliklar haqida ma'lumotlar beriladi:

Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>Your car is so old, George Washington probably used it to cross the Delaware.</i></p> <p>Tahlil: Bu hazil Amerika tarixida Jorj Vashingtonning inqilobiy urush davrida Delaveyr daryosidan o'tgan mashhur kechishiga ishora qilib, hazil bilan raqibning mashinasi qadimiy ekanligini ko'rsatadi.</p> <p>Misol: <i>Your fridge is so empty, it's like the last frontier of the Wild West</i> –</p> <p>Tahlil: Bu hazil Amerikaning chegara ruhiga ishora qilib, raqibning muzlatgichi bo'shligini Yovvoyi G'arb davrining bepoyon cho'li bilan taqqoslaydi.</p> <p>Misol: <i>Your phone is so slow, it's like you're using Morse code to send a text.</i></p> <p>Tahlil: <i>“Telefoningiz juda sekin ishlaydi, siz xabar yuborish uchun Morze alifbosidan foydalanayotganga o'xshaysiz”</i>. Bu hazilda raqib telefonining sekin ishlashi telekommunikatsiyaning dastlabki shakli bo'lgan Morze alifbosiga o'xshatilmoqda.</p>	<p>“Bo'lasizmi”<sup>17</sup> askiyasida “kolxoz”, “rais”, “kunlik terim” kabi so'zlar orqali paxta dalalaridagi voqealar aks ettirilgan:</p> <p>Misol: <i>Odilxo'ja: Mulla Nasriddin, mana endi tanqidingiz kor qilib ishlar ancha yaxshilandi, mo'l hosil ham qo'lga kiritildi. Keling, bir kulishaylik.</i></p> <p><i>Nasriddin: Xo'b, unaqa bo'lsa, bo'lasizmi?</i></p> <p><i>Odilxo'ja: Bo'lay, kimday?</i></p> <p><i>Nasriddin: Va'daboz raisday.</i></p> <p><i>Odilxo'ja: Nima qilardim?</i></p> <p><i>Nasriddin: Kunlik terim normasini ikki-uch marta oshirib bajaramiz deb osmondan kelardingiz-u, yerda do'ppini yarimta qilib yuraverardingiz!</i></p> <p>Tahlil: sobiq Ittifoq davrida respublikamizning barcha hududlarida kolxozlar va ularga mas'ul qilib birlashtirilgan raislar bo'lgan. Bu misolda kolxoz raislarining va'dabozligi tanqid qilinmoqda. Ular odatda markazdagilarga yaxshi ko'rinish uchun “bajaramiz” deya va'da beraverishgan.</p>

**Xalq orasida mashhur filmlarning ishlatilishi:** Har bir millatda ular sevib tomosha qiladigan filmlar bo'ladi. So'z ustalari o'z ijrolarida bundan samarali foydalanishadi:

Dozens	Askiya
<p>Misol: <i>Your yard is so overgrown, it looks like a scene from 'Jumanji'.</i></p> <p>Tahlil: <i>Hovlingizga anchadan beri e'tibor qilinmagan, “Jumanji” filmidagi manzaraga o'xshaydi.</i></p>	<p>“Bilganlar... Bilmaganlar” boshlanmali askiyalarda so'z ustalari o'zbek xalqining hind filmlarini sevib tomosha qilishlaridan foydalanib kulgi hosil qilishgan:</p> <p>Misol: <i>Qahramon aka: Bilganlar Qahramon akasi bilan Husanboy askiya qilyapti, deydi.</i></p> <p><i>Husanboy: Bilmaganlar-chi?</i></p>

<sup>17</sup> Дусматов Х. Аския – сўз ўйини санъати: монография / Фарғона давлат ун-ти., 2022. – Б. 32-33.



### 2-rasm. Jumanji filmi afishasi<sup>18</sup>

Tahlil: Bu hazilda “Jumanji” filmiga ishora qiladi, unda shahar atrofidagi mahallada nazoratdan chiqib ketgan o‘rmon o‘sadi. Raqib hovlisining qarovsiz qiyofasini kinodagi xaotik o‘rmon manzarasi bilan solishtirib, hazil bilan bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Misol: *Yo’ mama’s so dramatic, she thinks she’s starring in Gone with the Wind every time she slams a door.* Tahlil: Mashhur “Gone with the wind” filmiga ishora qilib, onaning kundalik harakatlarini dramatik kino sahnasiga qiyoslanib haddan tashqari bo‘rttirilgan.

Misol: *You’re so bad at keeping secrets, you’d spoil the ending of The Sixth Sense in the first 5 minutes.* Tahlil: *The Sixth Sense* filmining so‘nggiga ishora qilib, odamning sirlarini juda tez ochib beradigan va syurprizlarni chippakka chiqaradigan insonga tenglashtirilmoqda.

Misol: *Yo’ fashion sense is so outdated, even Back to the Future can’t bring it up to speed.* Tahlil: Vaqt bo‘ylab sayohat qiluvchi *Back to the Future* filmiga ishora qilib, hatto vaqt bo‘ylab sayohat qilish ham ularning uslublarini yangilashga yordam bermasligi hazil bilan aytilmoqda.

*Qahramon aka: Bilmaganlar ana shu Hindiston kinosidagi, daydib yuripti, deydi<sup>19</sup>.*



### 3-rasm. “Daydi” filmidagi Raj Kapur<sup>20</sup>

O‘zbeklar orasida hind kinolariga ishqibozlari juda ko‘p. Askiyachi raqibining holatini Raj Kapur ishtirokidagi “Daydi” filmiga qiyos qilmoqda.

Misol: *Husanboy: Qahramon aka!*

*Qahramon aka: Labbay!*

*Husanboy: Ram bilan Sham kelgan ekan, ana u Rami yoshligicha qopti, Shamini yoqib qo‘yibdi.* Tahlil: Ushbu misolda askiyachi o‘zi va raqibini “Ram va Sham” filmi qahramonlariga o‘xshatmoqda. Raqibning yoshi ulug‘ligiga ishora qilib so‘z o‘yini qilgan, “sham” so‘zining turdosh otdagi ma’nosidan unumli foydalangan holda “shamning yoqilib tugab borishi”ni “raqibning qari ekanligi va umri poyoniga yetayotganligi”ga o‘xshatadi.

Misol: *Jumavoy: Bilganlar ana shu chiroyli o‘tirganlaringni ko‘rib askiyachilar ekan deyapti.*

*Husan aka: Bilmaganlar-chi?*

<sup>18</sup> Jumanji: THR’s 1995 Review. [Elektron manba:] <https://www.hollywoodreporter.com/movies/movie-news/jumanji-review-robin-williams-original-movie-1995-1235749000/> (Murojaat sanasi: 11.04.2024)

<sup>19</sup> Askiya filmi. [Elektron manba:] <http://unesco.org> (Murojaat sanasi: 15.09.2024)

<sup>20</sup> “Daydi” filmidagi Raj Kapur. [Elektron manba:] <https://daryo.uz/2021/12/16/kino-sohasida-talim-olmay-bollivudga-asos-solgan-daydi-raj-kapur-hikoyasi> (Murojaat sanasi: 11.04.2024)

Misol: *Yo' memory's so bad, you'd forget who won in Rocky halfway through the movie.* Tahlil: *Rocky* filmiga ishora bo'lib, bu odamning xotirasi shunchalik zaif ekanligini, ular eng mashhur kino janrlaridan birining natijasini eslay olmasligini tanqid qilmoqda.

*Jumavoy: Bilmaganlar qaysinisi Ram ekan-u, qaysi biri Sham ekan deyapti.* Tahlil: Askiyachi atrofdagi askiya bahsini yaxshi tinglamayotganlarga ishora qilib, kulgi uchun tanlangan mavzuga tushunmay qolayotganligini nazarda tutmoqda.

Bobning "Dozens va askiya janrlarining umumiy va farqli jihatlari" nomli yakuniy faslida har ikkala janrning o'ziga xosliklari, ularning umumiy va farqli jihatlari ko'rib chiqilgan.

Chog'ishtirma tahlil natijalariga ko'ra, dozens va askiyaning quyidagi tipologik umumiyliklari, qisman o'xshash va differensial jihatlari (1-jadvalga qarang) aniqlandi:

### 1-jadval.

#### Dozens va askiyaning tipologik umumiyliklari, qisman o'xshash va differensial jihatlari

№	Xususiyatlar	Tasnif	Izoh
1.	Og'zakilik	Umumiy jihat	Har ikkala janr avvalo og'zaki nutq shaklida yashaydi va ijroda namoyon bo'ladi.
2.	Ommaviylik;	Umumiy jihat	Ikkalasi ham jamoa, auditoriya yoki davra oldida amalga oshadi.
3.	Nutqiy musobaqa (bahslashish)	Umumiy jihat	Har ikkala janrda verbal bellashuv va ustunlikka intilish kuzatiladi.
4.	Sahnaviylik	Umumiy jihat	Janrlarning ijrosi sahnaviy-performativ tusga ega.
5.	Ko'p talqinli so'zlardan foydalanish	Qisman o'xshash jihat	Askiyada tajnis va ko'pma'nolilik, dozensda semantik siljitish kuchliroq namoyon bo'ladi.
6.	Eksprompt, hozirjavoblik	Umumiy jihat	Har ikki janrning asosiy tayanchi tezkor javob va improvizatsiyadir.
7.	Dialogik va polilogik nutq shakliga xoslanganlik	Umumiy jihat	Replikalar almashinuvi va ko'p ishtirokchilik ikkala janrga ham xos.
8.	Komizm	Umumiy jihat	Kulgi va komik effekt har ikkala janrning markaziy belgilaridan hisoblanadi.
9.	Kulgi qo'zgatuvchi omillar sifatida badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanish	Qisman o'xshash jihat	Askiyada nozik kinoya va til o'yini, dozensda giperbola va masxaraviy bo'rttirish faolroq.
10.	So'z o'yiniga asoslanish	Umumiy jihat	Ikkala janrda ham verbal mahorat so'z o'yini orqali yuzaga chiqadi.

11.	Tanlangan mavzu doirasida bahslashish	Qisman o'xshash jihat	Askiyada mavzuviylik qat'iyroq, dozensda esa bahs ko'proq raqib shaxsiga yo'naltiriladi.
12.	Milliy-madaniy o'ziga xoslik	Umumiy jihat	Ikkala janr ham o'z xalqi madaniyati, qadriyati va nutq me'yorlarini aks ettiradi.
13.	Kreativlik	Umumiy jihat	Ijrochining topqirligi va individual nutqiy ijodi har ikkala janrda muhim.
14.	Ijrochining kulgusi	Farqli jihat	Askiyada ochiq kulgi tabiiyroq, dozensda esa jiddiy ohangning o'zi ham kulgi effekti berishi mumkin.
15.	Ijrochilarning so'z o'yinidan keyin bir-biriga kek saqlamasligi	Qisman o'xshash jihat	Bu janrlarning kommunikativ-etiket normasi sifatida tushunilishi mumkin, lekin har doim bir xil namoyon bo'lavermaydi.
16.	An'anaviy boshlanish shakliga egalik	Qisman o'xshash jihat	Askiyada an'anaviyroq, dozensda esa ko'proq formulaviy kirishlar ko'rinishida uchraydi.
17.	Turlicha nomlarga egalik	Umumiy jihat	Janrlarning nomlanishida ko'pvariantlilik mavjud.
18.	Bahslarda jismoniy kuch ishlatish holatlariga yo'l qo'yilmasligi	Umumiy jihat	Ikkala janrda ham asosiy kurash vositasi jismoniy emas, verbal ustunlik hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu nutq janrlarining 11 ta farqli lisoniy va nolisoniy xususiyatlari (2-jadval) aniqlandi:

## 2-jadval.

### Dozens va askiya og'zaki nutq janrlarining farqli lisoniy va nolisoniy jihatlari

№	Xususiyatlar	Dozens	Askiya
1.	Bahslarda ayollarning ham ishtiroki	+	-
2.	Milliy kiyim kiygan holda musobaqalashish	-	+
3.	Raqiblar sonining teng bo'lishi	+	-
4.	Haqoratlarning eksplisit ishlatilishi	+	-
5.	Tanlangan raqiblar bilan kurashish	+	-
6.	Moderatorning ishtiroki	+	-
7.	Musobaqada pul sovrinlarining mavjudligi	+	-
8.	“So'z o'yini”da “filter” mavjudligi	-	+
9.	Bahslarda fikrlar tadrijiyligining mavjudligi	-	+
10.	Bahslarda raqibga nisbatan hurmat-ehtirom ko'rsatilishi	-	+
11.	Yakunda an'anaviy xotima mavjudligi	-	+

Dozens va askiya tortishuvlari afro-amerikaliklar va o'zbek xalqining madaniyatini aks ettirishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qilsa, yumoristik janr sifatida tinglovchilarda kulgi va zavq ulashish nuqtai nazaridan o'xshash va umumiy jihatlariga ega.

## XULOSA

1. Nutqiy janrlar ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy va psixologik munosabatlarni ifodalovchi, ma'lum bir vaziyatga moslashadigan va barqaror tematik hamda kompozitsion xarakter ega bo'lgan kommunikativ kategoriyalardir. Har bir nutq janrida o'ziga xos kommunikativ maqsad aks etadi, bunda ishtirokchilar faqat axborot uzatish bilan cheklanmay, balki tinglovchini anglashga undashga intilishadi.

2. Til ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, og'zaki nutq janrlarini lingvomadaniy fenomen sifatida o'rganish til va madaniyatning o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bunday yondashuv nutq janrlarida milliy-madaniy qadriyatlar, kommunikativ me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar va etnomadaniy tafakkurning qanday namoyon bo'lishini ochib beradi. Natijada madaniy xilma-xillik haqidagi tasavvurlar boyiydi, madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunish imkoniyati kengayadi hamda lisoniy-madaniy merosni saqlash va izohlash uchun ilmiy asos yaratiladi.

3. Afro-amerikaliklar orasida o'ynaladigan dozens so'z o'yini va o'zbek xalqining askiya san'ati og'zaki ijodning bir ko'rinishi bo'lib, ular juda o'ziga xosdir. Bu janrlarning lingvomadaniy tahlili ularning til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarini tushunishga yordam beradi. Dozens va askiya so'z san'ati o'z milliy koloritiga va ma'no nozikliklariga ega ekanligi lingvomadaniy tadqiq orqali ochib beriladi.

4. Afro-amerikalik xalqlarning dozens va o'zbek xalqining askiya janrlari matniy-kompozitsion tuzilishidagi umumiy va farqli jihatlar tahlili orqali ularning shakllanishi va rivojlanishida turli sivilizatsion-madaniy an'analar hamda qadriyatlar tizimining aks etishi, shuningdek, madaniy va tarixiy kontekstlarning ta'siri ilmiy asosda isbotlandi.

5. Dozens va askiya so'z o'yinlari matnlaridagi o'xshash va farqli jihatlar lisoniy va nolisoniy aspektlarda, xususan, sintaktik, leksik va stilistik sathlarda tizimli ravishda tahlil qilinishi orqali ushbu janrlarning struktural va funksional xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, hazil matnlaridagi til va kontekst o'rtasidagi o'zaro aloqalar, aytishuvlar bilan bog'liq madaniy-ijtimoiy faktlar yoritildi.

6. Dozens va askiya janrlariga xos lisoniy xususiyatlar badiiy ifoda vositalarining (so'z o'yini, kinoya, metafora, giperbola, ironiya va boshqalar) faol qo'llanilishi bilan namoyon bo'lib, nutqiy hozirjavoblik, kulgi uyg'otish va kulgili ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Statistik tahlil ushbu vositalarning qo'llanish darajasi va o'rnini aniqlash, janrlarning leksik, sintaktik va stilistik qatlamlaridagi umumiylik va farqlarni ko'rsatish imkonini berdi.

7. Dozens va askiya janrlarini qiyoslash ilmiy jihatdan asosli, chunki ular bir xil funksional vazifani – hazil orqali ijtimoiy muloqot va kulgi yaratishni bajaradi. Shu bilan birga, ularning madaniy, tarixiy va mazmuniy jihatlari farq qiladi. Shuning uchun, qiyoslash ularning umumiy lingvomadaniy qonuniyatlarini ochib berishga yordam beradi.

8. Hazil, insonni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishda samarali vosita bo‘lib, kutilmagan vaziyatlarga javob berishning bir shaklidir. Dozens o‘ynash yoki askiya ijro etish odamlarni birlashtirish, uyg‘unlashtirish va o‘zaro muloqotni kuchaytirish imkonini beradi.

9. Har ikkala janr ham hazil va kulgi orqali ijtimoiy munosabatlarni, madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Askiya o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va an‘analari bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy muammolarni, illatlarni fosh etish va fazilatlarni tarannum etishga qaratilgan. Dozens esa, afro-amerikalik jamoalarda tilning epchillik bilan bog‘liq xususiyatlarini, shuningdek, Amerika tarixi va madaniyati bilan bog‘liq elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu tariqa, har ikkala janr o‘zining madaniy va lisoniy kontekstiga xos bo‘lib, o‘zaro anglash va muloqotda yangi nuqtalar ochishga imkon yaratadi.

10. Yumoristik og‘zaki nutq janrlarining lingvomadaniy aspektida chog‘ishtirib o‘rganilishi tilshunoslik, antropologiya, folklorshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi turli fanlararo tadqiqotlar uchun boy materiallarni taqdim etadi. Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan ushbu so‘z o‘yinlarini to‘liq tushunish va anglab yetish uchun yuqorida keltirilgan fanlarga murojaat qilish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**  

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**КУЛМАМАТОВ ОЙБЕК АМОНОВИЧ**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЖАНРОВ УСТНОЙ  
РЕЧИ (НА ПРИМЕРЕ ДАЗИНС НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И АСКИЯ  
НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ)**

**10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за №B2022.1.PhD/Fil2258.**

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Кулматов Бахром Гулямович**  
доктор философии по педагогическим наукам, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Кодирова Фазилат Шукуровна**  
доктор филологических наук, профессор  
**Дусматов Хикматулло Хаитбоевич**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандский государственный институт иностранных языков**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел: (+99871) 230-12-91; факс: (+99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-91; факс (+99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 года).

**А.А.Насиров**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, док.филол.н., профессор

**Х.Б.Самигова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, док.филол.н., профессор

**Дж.А.Якубов**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, док.филол.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике углублённый анализ жанров устной речи и выявление их лингвокультурных особенностей рассматриваются как одно из важных научных направлений. В условиях глобализации интенсификация процессов коммуникации и межкультурного общения ещё более усиливает научный интерес к данным жанрам. Изучение жанров устной речи с лингвокультурной точки зрения позволяет осветить сложные взаимоотношения между языком и культурой, а также определить, каким образом культурные ценности и социальные нормы отражаются в языке. В связи с этим развитие языкознания обуславливает необходимость комплексного лингвистического и лингвокультурологического анализа указанных жанров в рамках культурных контекстов, существующих в различных языках.

Изучение речевых жанров в лингвокультурном аспекте актуально в мировой лингвистике по ряду объективных причин. Язык – это не только средство общения, но и явление, отражающее духовно-культурный опыт и национальное мышление народа. Речевые жанры являются одной из основных форм выражения этого культурного содержания и социального контекста, и их анализ позволяет выявить такие важные элементы, как ценности общества, моральные нормы и идентичность. В условиях глобализации изучение речевых жанров различных народов на культурной основе играет важную роль в укреплении межкультурного взаимопонимания и развитии коммуникативной компетенции. Именно поэтому данное направление признается актуальной областью исследований в современной лингвистике и культурологии.

Хотя на новом этапе перспективного развития Республики Узбекистан рядом лингвистов были проведены научные исследования<sup>1</sup> по лингвокультурным вопросам устных речевых жанров в контексте различных языков, лингвокультурные особенности таких устных жанров, как *dozens* (*дазинс*) афроамериканцев и *аския* узбеков, до настоящего времени недостаточно изучены и не становились объектом сравнительного анализа.

---

<sup>1</sup> Gray J.M. So help me God: Oaths and the English reformation. A Dissertation submitted to the department of history and the committee on graduate studies of Stanford University in partial fulfillment of the requirements for the degree of philosophy. – USA, 2008. – P. 600.; Абрамова Т.В. Диалогическое единство “просьба – реакция” (на материале русского и английского языков): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Воронеж, 2003.; Акименко Н.А. Лингвокультурные характеристики английского сказочного дискурса: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2005.; Белозерова Е.В. Реклама как жанровый метаконцепт (на материале современной русской лингвокультуры): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2007.; Зотева Т.С. Диалогическое единство в жанре просьбы и его эволюция в английской драме XVI-XX вв.: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Саратов, 2001.; Козлов Е.В. Коммуникативность комикса (в текстуальном и семиотическом аспектах): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 1999.; Кочетова Л.А. Лингвокультурные характеристики английского рекламного дискурса: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 1999.; Кочкин М.Ю. Политический скандал как лингвокультурный феномен: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2003.; Кусов Г.В. Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт: Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Волгоград, 2004.; Синявский А.А. Лингвокультурологический анализ и испанских анекдотов (на материале пиренейского национального варианта испанского языка). Дисс... канд.филол.наук. – М., 2007.

Кроме того, наряду с их сопоставительно-типологическими характеристиками, не имеется достаточного количества научных исследований, посвящённых их стилистическим особенностям, лингвокультурным факторам и аспектам перевода. Комплексное изучение устных речевых жанров дазинс на английском языке и аския на узбекском языке, которые отражают культуру Востока и Запада, резко отличающиеся по социально-культурному контексту, является одним из важнейших факторов, определяющих актуальность данной темы.

Данное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в указах Президента от 5 июня 2018 года УП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», от 28 ноября 2018 года № УП-4038 «Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан», от 11 июля 2023 года № УП-222 «О мерах по дальнейшему развитию в республике национального искусства аския и юмора», постановления Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 8 октября 2019 года № ПП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 28 января 2022 года № ПП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 октября 2010 года № 222 «Об утверждении Государственной программы по охране объектов нематериального культурного наследия, сохранению, пропаганде и их использованию в 2010-2020 годы», от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», и в иных нормативно-правовых актах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

